



BUXORO AMIRLIGINING ROSSIYA IMPERIYASI BILAN DIPLOMATIK ALOQALARI

Ikromov Otabek Ulug'bek o'g'li

Andijon davlat universiteti

Tarix fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Buxoro amirligining ichki va tashqi siyosati hamda uning Rossiya imperiyasi bilan diplomatik aloqalar, elchilik munosabatlari haqida batafsil aytib o'tilgan. Bundan tashqari diplomatik munosabatlarni tadqiq etishga xizmat qiluvchi manbalar, tashrif buyurgan elchining shaxsi va maqsadi va Toshkent, Sankt-Peterburgdagi qabul jarayonlari aks ettirilgan.*

Kalit so'zlar: *Buxoro, Rossiya, imperiya, amirlik, siyosat, elchilik, diplomatik, Toshkent, Sankt-Peterburg,*

Аннотация: *В статье подробно описана внутренняя и внешняя политика Бухарского эмирата, его дипломатические отношения с Российской империей, а также посольские отношения. Кроме того, имеются источники для изучения дипломатических отношений, личности и целей. Отражены визит посла, приемы в Ташкенте и Санкт-Петербурге.*

Ключевые слова: *Бухара, Россия, империя, эмират, политика, посольство, дипломатическая, Ташкент, Санкт-Петербург,*

Abstract: *This article describes in detail the internal and external policy of the Emirate of Bukhara, its diplomatic relations with the Russian Empire, and its embassy relations. In addition, there are sources for the study of diplomatic relations, the identity and purpose of the visiting ambassador, and the reception in Tashkent and St. Petersburg. processes are reflected*

Keywords: *Bukhara, Russia, empire, emirate, politics, embassy, diplomatic, Tashkent, St. Petersburg,*

**Kirish.**

Buxoro amirligi bilan Rossiya imperyasining diplomatik munosabatlarini tadqiq etishga xizmat qiluvchi manbalar O`zbekiston Milliy arxivi hamda Rossiya Federatsiyasidagi arxiv jamg`armalaridagi hujjatlar asosida bu narsani ko`rib chiqishimiz mumkin. O`zbekiston hududida mavjud bo`lgan tarixiy davrlarni o`rganishda O`zbekiston Milliy arxivi o`rinli manba hisoblanadi. Bunda biz Buxoro amirligi bilan Rossiya imperyasining diplomatik savdo-iqtisodiy aloqalarini ko`rib chiqamiz.

Natijalar.

Bu aloqalarni isbotlovchi yana bitta muhim manba bor bu Rosiia imperyasi tashqi siyosati tarixi hisoblanib, bu manba ham ikki davlat o`rtasidagi elchilik munosabatlari haqida ma`lumot berib o`tilgan. O`rta Osiyo qadimdan qo`shni davlatlar bilan savdo-sotiq aloqasida bo`lgan. Sharqni G`arb bilan bog`lab turgan Buyuk ipak yo`lida joylashganligi, bu yerda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qo`shni davlatlarda yetarlicha ehtiyojning mavjudligi. Xorij davlatlari bilan savdo aloqalaridan Buxoro amirligi ham manfaatdor bo`lgan. Shuning uchun ham qo`shni davlatlar o`rtasida doimiy ravishda savdo karvonlari qatnab turgan. Buxoro amirligi Rossiyaning ham e`tiborini torta boshlagan. Tarix manbalaridan ma`lumki, XVIII asr ikkinchi yarmidan boshlab, Rossiya savdo aloqalarida O`rta Osiyo xonliklarining o`rni muhim ahamiyat kasb etgan. Bu munosabatlarda Buxoro amirligining mavqeyi yanada ortib borgan. Buxoro amirligining Rossiya bilan diplomatik munosabatlari XVI asrning ikkinchi yarmidan rivojlana bordi. Bu ikki mamlakat orasidagi elchilik aloqalarini uch bosqichga ajratish mumkin. Bular: birinchisi harbiy harakatlar davri, ikkinchisi bevosita Rossiya imperiyasining shaharlari Sankt-Peterburg va Moskva shaharlaridagi Buxoro amirligi tomonidan borgan elchilar tashrifi, uchinchisi 1867-yilda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgandan keyin, ushbu shaharda an`anaviy elchilarning tashriflari masalasida o`rganilish lozim. Abdullaxon II Rossiya bilan savdo aloqalarini yaxshilashga harkat qildi. Abdullaxon II 1585-yil Muhammad Ali boshchiligida, 1589-



yil Do`stum boshchiligida Moskvaga elchi yuborgan. Elchilar Moskva hukmdori tomonidan iliq kutib olingan. Rossiya imperiyasi Fyodor Ivanovich Buxorolik savdogarlarni Rossiyaning barcha shaharlarida erkin savdo qilish, Qozon va Astraxanda doimiy bozorlar ajratishni e`lon qilgan. Buxoro va Rossiya o`rtasidagi munosabatlar XVI asr oxirida, Sibir xonligining ruslar tomonidan bosib olinishi tufayli biroz buzildi. XVII asrda Buxoro va Rossiya imperiyasi o`rtasidagi aloqalar yanada mustahkamlandi. 1884-yildan boshlab Buxoro amirligi Toshkentda o`zining vakilligiga ega bo`ldi. Bu orqali u o`zining mustahkamligiga erishmoqchi bo`ldi. Chunki Ivan Grozniy davrida Rossiyaning mavqeyi ko`tarildi. Volga atrofida viloyatlarda savdo-sotiq ishlarini olib borish Buxoro xonligidan kelgan savdogarlar uchun ancha qulay edi. Qo`shni mamlakat Rossiya bolib qolgandi. Ayni paytda, Rossiya bilan Buxoro xonligi bilan savdo-sotiq ishlarini rivojlantirishdan manfaatdor edi. Bu avvalo amirlikning Rossiya tovarlarini sotish uchun qulay bozorligida edi. 1555-yilda Moskvada "Moskva kompaniyasi" tashkil etildi. 1558-yil kompaniya Rossiya orqali Sharqqa yo`l ochish uchun elchisini Antoniy Jenkinsonni Buxoro amirligiga yubordi. Elchi Abdullaxon II tomonidan qabul qilindi. Antoniy Jenkinsonni elchiligi natijasida Rossiya imperiyasi bilan Buxoro amirligining iqtisodiy savdo-sotiq va diplomatik aloqalari yo`lga qo`yildi. Rossiya bilan Buxoro munosabatlarida Ashtarxon orqali Buxoro amirligi fuqorolarning Makka shahriga Haj safariga boorish masalasi muhim o`rin tutgan. Rossiya va Buxoro manfaatlari Sibirda to`qnashdi. Rossiya elchilari Buxoro amirligi bilan faqat savdo aloqalarini kengaytirish masalalarini hal etibgina qolmadi. 1620-yilda Buxoroga yuborilgan Rossiya imperiyasini elchisi I.D.Xoxlovga Buxoro amirligining tashqi siyosiy ahvoli to`g`risida ma`lumot to`plash, Rossiyaning kuchiga xonni ishontirish, Buxoro amirligi qurolli kuchlari, amirlikning xazinasini batafsil o`rganish vazifasini qo`ydi. I.D.Xoxlov berilgan vazifani a`lo darajada bajardi. XVIII asrda Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o`rtasidagi munosabatkarida yangi davr boshlandi. Bu davrga kelib Rossiyaning O`rta Osiyo xonliklari ya`ni Buxoro amirligi bilan savdo-sotiq aloqalarida kamsitish siyosatini



boshladi. Boj to'lovi miqdori oshirildi. Siyoriy maqsadlarni ro'yobga chiqarish hamda tabiiy boyliklarga ko'z olaytirish kuchaydi. Rossiya imperiyasini O'rta Osiyoni oltinlari qiziqтира boshladi. Pyotir I Buxoroni siyosiy jihatdan Rossiya imperiyasiga teng davlat emas deb hisobladi va amalda Buxoro amirligiga tazyiq o'tkaza boshladi. 1718-yil Irtish daryosi sohilida yeti qo'rg'ondan iborat shahr Semipalatinsk qurdirdi. Bu esa Buxoro amirligini tashvishga soldi. Shu munosabat bilan Abulfayzxon Rossiyaga elchi yubordi. U o'z maktubida Buxoroga Rossiya elchisini yuborilishini ham so'radi. Bunga javoban Rossiya hukumati 1721-yilda Florio Benevenini elchi qilib jo'natdi. Rossiya elchisiga O'rta Osiyoga olib boriladigan suv va quruqlik yo'llarini o'rganish, rus savdosini kengaytirish imkoniyatini aniqlash, Buxoro xonini Rossiya bilan ittifoq tuzishga ko'ndirish, xonga rus gvardiyachilarini taklif qilish, qayerda qancha oltin borligini aniqlash va ularni xaritaga tushirish, amirlikdagi qal'alar va qo'shinning ahvolini o'rganish hamda amirlikning ichki ahvolini, shuningdek Eron, Xiva va Usmoniylar bilan o'zaro munosabatlarini o'rganish vazifalari yuklatildi. F. Beneveni Buxoro amirligida 3 yarim yil turib, o'z oldiga qo'yilgan masalalar bo'yicha qimmatli ma'lumotlar to'plashga ega bo'ldi va 1725-yilda Rossiya imperiyasining Peterburg shahriga qaytib ketti. XVI asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligi bilan Rossiya imperiyasi o'rtasidagi elchilik aloqalari mahalliy va rus manbalarida qayd etilgan [1]. O'rta Osiyoda XVI asr oxirlarida yaratilgan muhim tarixiy asarlardan biri Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" ya'ni "Sharafnomayi Shohi" asaridir. Bu asar 1584-1591 yillar oralig'ida yozilgan bo'lib bu asar Buxoro xoni Abdullaxon II ning tarixi bo'lganligidan Abdullanoma nomi bilan mashhur. Hofiz Tanish Buxoriyning bu asari o'rta osiyo xalqlarining XVI asrdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy maadaniy hayotni o'rganishda muhim manba hisoblanadi hamda asar daliliy ashyolarga boyligi tarixiy voqealarni atroflicha yoritganligi bilan boshqa asarlardan aajralib turadi. Hofiz Tanish Buxoriy asarda ko'p voqealarni o'zi guvoh bo'lgan va ayrimlarini shohidi bo'lgan kishilardan eshitib yozgani uchun bu asar juda qimmatli hisoblanadi. XVI asrning ikkinchi yarmida Buxoro xonligi bilan Rossiya imperiyasi



oʻrtasidagi elchilik aloqalari asosan iqtisodiy xarakterga ega hisoblanib, ikki davlat orasidagi savdo aloqalarini davom ettirish, Rossiyaning boshqa viloyatlaridagi oʻrta osiyolik savdogarlarning erkin savdo q qilishiga imkoniyat berish, oʻrta osiyolik hukmdorlar uchun shunqorlarni sotib olishga ruxsat berish kabi kelishuvlar oʻz ifodasini topgan. Ikki davlatning manfaatlari bir boʻlganligi bois Moskva hukmdorlari oʻrta osiyolik savdogarlarning tovarlaridan boj soligʻini olishni bekor qilgan. A. Jenkinson Rossiya imperiyasining Buxoro amirligiga yuborilgan rasmiy elchisi hisoblanadi. Bu elchilik aloqalari oqibaatida Jenkinsonning Rosssiya nomidan Buxoro amirligiga joʻnatilishi Rossiyaning oʻrta osiyo savdosida maʼlum bir manfaati boʻlganidan dalolat beradi va savdo aloqalaaarini rivojlantirishga yoʻl ochadi. Jenkinson Moskvaga qaytayotganda u bilan birga Urganch, Balx, Buxoro elchilari ham birga keladi. Buxoro amirligi imperiya bilan diplomatik aloqalarida 1885-yillarda Rossiya imperiyasi davlar kengashi tomonidan ishlab chiqarilgan qarorga asosan, 1886-yil 1-yanvardan boshlab, Buxoroda Rossiya imperiyasi elchililari lavozimi va muassasasi tashkil etila boshlandi. Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasini oʻrtasidagi diplomatik aloqalar haqida Ahmat Donish, Mirzo Abdulaziz Somiy, Sadridin Ayniy, Abdurauf Fitrat kabi maʼrifatparvarlarning asarlarida maʼlumot berilgan. Abdurauf Fitrat Amir Olimxon tarixiga bagʻishlangan asarlarida Olimxonning qaysi davlatlar bilan olib borgan diplomatik aloqalari haqida batafsil yoritib oʻtilgan. Said Mir Abdulahad 1903-1906-yillarida safarida yozgan “Xotira kundaliklari” da Rossiya imperiyasi hududida tashrifini bosqichma-bosqich yoritib bergan.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytamanki, Oʻzbekistonning koʻp yillik tarixida Buxoro amirligi alohida ahamiyatga ega. Amirlik tarixiga nazar tashlasak, unda amirlikning tashkil topshidan boshlab soʻngi kunlarigacha boʻlgan murakkab siyosiy jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar hukm surganligiga guvoh boʻlamiz. Buxoro amirligi Rossiya imperiyasidan tashqari Xitoy, Sharqiy Turkiston, Eron, Turkiya kabi



mamlakatlar bilan ham diplomatik aloqaga kirishgan. Bu Buxoro amirligi tarixida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Н. Hasanov. Sayyoh olimlar. Toshkent. 1981.
2. R. Shamsutdinov, X. Mo'minov O'zbekiston tarixi. –Toshkent: Akademnashr 2019.
3. Кодиржонов , О. ., & Муминов , Х. (2023). Особенности политических и экономических отношений между Узбекистаном и Китайской Народной Республикой. *Общество и инновации*, 4(5), 78–82. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss5-pp78-82>